



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



KORXONALARDA SAMARALI INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ACOSLARI

Aminov Bobir O'Imasovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Nomozova Qumri Isoyevna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori v.b.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi investitsion imkoniyatlarni ichki va tashqi komponentlarning birligida ko'rib chiqish muhim deb qarashadi. Masalan, A.V.Kozik samarali investitsion faoliyatini "ichki va tashqi investitsiyalarning mumkin bo'lgan maksimal jarayonlarda o'z-o'zini moliyalashtirishning ulushi katta, ammo tashqi manbalar ham investitsiya jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi" deb tasniflaydi (Kozik A.V., 2000.).

Biz investitsiya salohiyatining kengaytirilgan talqiniga aynan samarali investitsion faoliyatning o'ziga xos hususiyatlarini aks ettirmaydigan va boshqa har qanday salohiyatlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan, jumladan, samarali investitsion faoliyat, investitsion jozibadorlik, investitsiya muhiti, investitsion faollik kategoriyalari o'rtasidagi farqni aniq ko'rsatib bermaydigan umumiyligi iqtisodiy salohiyatga taaluqli tushunchalarni kiritdik. Sub'ektlarning samarali investitsion faoliyati va investitsion jozibadorligi to'g'risida I.B.Maksimov (Maksimov I.B., 2002.), investitsion muhit va uni tashkil qilish masalasi Rossiyaning reyting agentligi tomonidan tasniflangan (Investitsionnyy klimat i yego sostavlyayushchie [Elektronnyy resurs] // Sayt Reytingogo agentstva «Ekspert RA». Rejim dostupa: <http://raexpert.ru/ratings/regions/2024/part1/>).

Samarali investitsion faoliyatni amalga oshirishda uning tarkibiy qismlarini farqlash zarurati bilan duch kelinadi. Bu tizimni quyi tizimlar va elementlarga bo'lish kabi oddiy jarayon emas, chunki tizimli yondashuvda quyi tizimlar va elementlar har doim bir xil tarkibli ko'rsatkichlar yig'indisini anglatadi. N.A.Xashimova tomonidan taklif etilgan samarali investitsion faoliyat kategoriyalarini aniqlashga agregatli yondashuvda investitsiya salohiyati aggregati investitsiya salohiyatini shakllantirishni boshqarish bo'yicha samarali hamkorlik ishlarini amalga oshirish uchun bir necha xil usullar yig'indisi yaxlit birlashtirilishini nazarda tutiladi.

Bizning fikrimizcha, samarali investitsion faoliyatning qamrab oluvchi elementlari bo'yicha eng muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

molivaviy salohiyat (jalb qilinishi mumkin bo'lgan investitsion pul oqimlari);

moddiy va resurs salohiyati (asosiy kapital sifatida ishlatalishi mumkin bo'lgan moddiy ob'ektlarning bozorda mavjudligi yoki o'zida ishlab chiqarilishi);

innovatsion salohiyat (yangi texnika va texnologiyalarni o'zida mujassam eta oladigan yangi ilmiy-texnik g'oyalar va namunalar);





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



intellektual salohiyat (asosiy ishlab chiqarish vositalari, investitsiya loyihibalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga taalluqli bo‘lgan yangi ob‘ektlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan shug‘ullanadigan korxona va muassasalarning xodimlari).

Ho‘jalik yuritishning har qanday darajasida samarali investitsion faoliyatning rivojlanishi ma’lum moliyaviy resurslarning mavjudligini taqozo etadi, shuning uchun samarali investitsion faoliyatning moliyaviy tarkibiy qismini tahlil qilishda nafaqat real asosiy kapitalni ko‘paytirishga sarflangan mablag‘larni, balki xodimlarning innovatsion qobiliyatlarini rivojlantirish, intellektual mahsulotlarni sotib olish, ularni amalga oshirish hamda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturli faoliyatiga yo‘naltirilgan xarajatlar ham hisobga olinishi lozim. Mahsulot va texnologiyalardagi yangiliklar nafaqat haqiqiy asosiy kapitalga investitsiyalarni jalg qilishni rag‘batlantiradi, balki yangi ilmiy-texnik asosda real kapitalni ko‘paytirish shartidir.

Shuni qayd etish kerakki, biz “samarali investitsion faoliyat” va “iqtisodiy salohiyat” kategoriylarini keng qamrovchi tushunchalar sifatida farqlaymiz. Iqtisodiy salohiyat keng ma’noda investitsion jozibadorlik omili hisoblanadi, chunki asosiy kapitalga mablag‘ kirituvchi sarmoyadorlar uning keyingi ishlashi va qaytimi uchun barcha shart-sharoitlarni, shu jumladan, mehnat resurslarining zarur miqdori va sifatini ta’minlashni puxta o‘ylab chiqishga majburdirlar.

Rasmiy statistika ma’lumotlarga ko‘ra, samarali investitsion faoliyat tarkibidagi innovatsion va boshqa xarajatlar o‘rtasida nomutanosibliklar mavjud. Nomoddiy aktivlarga investitsiyalar (patentlar, ixtiolar, nou-xau) ilmiy-tadqiqotlar, tajriba-konstrukturlik ishlanmalari va texnologik ishlarga sarflanadigan xarajatlar nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan barcha investitsiyalarning 1 foizini ham tashkil etmaydi.

1-jadval

Samarali investitsion faoliyatning matritsali (ko‘p o‘lchovli) tuzilishi (Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Samar ali investitsio n faoliyat agregatlar i	Imkoniyatlarni safarbar qilish darajasi			
	Korxonalar	Tarmoq	Hudud	Makro darajada
Moliy aviy	Amortizatsiy a fondi, sof foyda, korxonalarning markazlashtirilg an fondi	Tarmoq dasturlari doirasida moliyalashtiri sh	Mahalliy byudjetlarning investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan mablag‘lari, mintaqaviy kredit va	Pul-kredit oqimlarini safarbar qilish. Jamg‘arma, byudjet va byudjetdan tashqari





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



			bank – investitsiya tashkilotlarining kredit salohiyati, qimmatli qog‘ozlarning mintaqaviy bozorlarida jalb qilinishi mumkin bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning jamg‘armalari	mablag‘lar
Moddiy resursli	Asbob-uskunalar ishlab chiqarish va qurilish ishlarini bajarishning o‘z imkoniyatlari	Tarmoq korxonalari tomonidan tarmoqning ichki ehtiyojlari uchun asbob-uskunalar ishlab chiqish va qurilish ishlarini bajarish	Asbob-uskunalar va qurilish-montaj ishlarini tashkil qilishni o‘z ichiga olgan mintaqaviy sanoat klasterlari	Tabiiy va iqtisodiy resurslarni safarbar qilish. Moddiy va xom ashyo bazasi, ishlab chiqarish quvvatlari, asosiy fondlar.
Innovatsion	Korxonalarning ilmiytadqiqot, tajriba konstruktorlik bo‘limlari va ularning mahsulotlari	Tarmoq ilmiytadqiqot institutlari, dizayn byurolari va innovatsion faoliyatning boshqa tuzilmalari va ularning mahsulotlari.	Innovatsion faoliyatga xizmat qiluvchi mintaqaviy tuzilmalar.	Innovatsiya va axborot texnologiyalarini joriy etish. Ilmiytadqiqot, loyiha konstruktorlik institutlari.
Intellektual	ITTKI, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish bilan	Xoldinglar va kombinatlar tarkibiga kiradigan	Mintaqaviy ilmiytadqiqotlar institutlari, loyihalash byurolari, mintaqada innovatsion faoliyat va uni	Demografik va mehnat salohiyati. Ta’lim va mutaxassis





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



<p>shug‘ullanadiga n xodimlar, qurilish montaj ishlari, asbob-uskunalar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadiga n o‘z bo‘linmalarinin g xodimlari.</p>	<p>korxonalarda ITI, loyihalash byurolari, qurilish-montaj ishlari, asbob-uskunalar ishlab chiqarish tarkibidagi ITTKI bilan shug‘ullanuvchi xodimlari.</p>	<p>amaliyotga tadbiq etish ta’minlaydigan tizimlar, hududiy qurilish tashkilotlari va asbob-uskunalar ishlab chiqaruvi korxonalardagi investitsiya loyihalarini amalga oshiradigan ITTKI mutaxassislari</p>	<p>xodimlar</p>
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------

1-jadvalda biz ishlab chiqqan matritsali jadval keltirilgan bo‘lib, unda iqtisodiy tizimning turli darajalariga nisbatan samarali investitsion faoliyatning tarkibiy qismlari va ularni amal qilishining asosiy mexanizmlari aks ettirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, samarali investitsion faoliyatning tashqi va ichki qismlarga bo‘linishi nisbiy xarakterga ega. Tashkilotlar va korxonalar uchun uzoq muddatli bank kreditlari, byudjet mablag‘lari va aholi jamg‘armalarini jalb qilish imkoniyatlari korxonalar va tashkilot uchun tashqi manbalarni tashkil etadi, ammo mamlakat yoki mintaqqa uchun ichki hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot darajasida xalqaro moliyaviy bozorlar, investitsiya tovarlari bozorlari, intellektual va ilmiy-texnik mahsulotlar bozorlari, xalqaro mehnat bozorlaridagi faoliyat hisobiga samarali investitsion faoliyat moliyaviy va moddiy jihatdan ham, innovatsion va intellektual tarkibi jihatidan ham kengayib bormoqda. Juhon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida, O‘zbekistonning BSTga kirishga intilishi, xalqaro tarkibiy o‘zgarishlar hisobiga investitsiya salohiyatining kengayishi yangi imkoniyatlarga ega bo‘lib, uni shakllantirish mexanizmida muhim vazifaga aylanadi.

Amaliy va nazariy jihatdan samarali investitsion faoliyatni oshirish bilan bir qatorda undan to‘liq foydalanish va real investitsiyalarga aylantirilishi ham muhimdir. Buni milliy iqtisodiyot darajasida yalpi investitsiyalarning yalpi jamg‘armalarga nisbati bilan aks ettirishi mumkin. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2008-2018 yillarda O‘zbekistonning samarali investitsion faoliyatidan o‘rtacha 60-70 % foydalanilgan (Uzbekistan v sifrax. 2019 g. Stat.sb. // Gosudastvennyy komitet po statistike. - T., 2019.).

Korxonalar va tarmoqlar darajasida, bizning fikrimizcha, investitsiyalar hajmini amortizatsiya fondi va sof foyda manbalari bilan taqqoslash orqali, moliyaviy qismida ichki



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



samarali investitsion faoliyatdan foydalanishni baholash mumkin. Ko‘plab tarmoq va korxonalar uchun salohiyat tashqi salohiyat bo‘lganligi sababli ushbu sohaga yoki ma’lum bir korxonaga haqiqiy jalb qilinishi mumkin bo‘lgan mablag‘ miqdoridan kelib chiqib baholanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki investitsiyalarni ta’minlaydigan jarayonlar, munosabatlar, omillarning tegishli ilmiy kategoriylar va tushunchalarni xilma-xilligi talab qiladi. Ular o‘zlarining mohiyati va mazmuniga ko‘ra to‘ldirilishi va tizimli hisobga olinishi kerak. Samarali investitsion faoliyat, ko‘p o‘lchovli tizim sifatida shakllanadigan investitsiya jarayonining resurs imkoniyatlarini tavsiflaydi. Ichki va tashqi salohiyatdan foydalanish aniq ob’ektlarning investitsion jozibadorligi, mamlakat, mintqa, tarmoqlardagi investitsion muhitni yaxshilanishi, takomillashtirilishini taqozo etadi.

